SAID AHMADNING "QORAKO'Z MAJNUN" HIKOYASIDAGI VAFODOR HAYVON TIMSOLI

Termiz davlat pedagogika instituti Tillar fakulteti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 4-bosqich 407-guruh talabasi
Mamarasulova Dildora

Annotatsiya: Maqolada Said Ahmad hayoti va ijodi, "Qorako'z majnun" hikoyasidagi vafodor hayvonni o'z oila a'zolaridek qabul qilishi hamda Saodat ayaning o'g'li - Bo'rixonning boshqa yurtda yurib, o'zga dinni qabul qilishi haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: vafodor hayvon, Saodat aya obrazi va farzandlari, Qorako'z, Bo'rixonning boshqa dinni qabul qilishi.

Said Ahmad Husanxo'jayev 1920-yili "Samarqand darvoza" mahallasida Husanxo'ja Dadaxo'jayev oilasida tavallud topgan. Dastlab "Mushtum" jurnalida, "O'zbekiston" radiokommitetida, "Qizil O'zbekiston", "Sharq yulduzi" jurnallarida ishlay boshlagan. Ilk mualliflik hikoyalar to'plami "Tortiq", 1940-yilda nashr ettiriladi. U ko'plab ocherk, hikoyalar, felyetonlar yozgan. "Muhabbat", "Farg'ona hikoyalar", "Er yurak" to'plamlari; "Xazina", "Rahmat, azizlarim", "Hayqiriq", hikoyalari, "Qadrdon dalalar", "Hukm" qissalari, "Ufq" trilogiyasi, "Jimjitlik" romani, drama sohasida esa "Kelinlar qo'zg'oloni", "Kuyov" kabi sahna asarlar muallifidir.[1] Adibning "Qorako'z majnun" hikoyasiga to'xtalib o'tsak, avvalo, hikoya boshida Muqaddas kitobimizdan bir sura keladi:

"Sizlardan qay biringiz o'z dinidan qaytsa va shu kofirligicha o'lsa, bas, ana o'shalarning (qilgan savobli) amallari bekor bo'lur, ular do'zax ahlidurlar va u yerda mangu qolurlar". ("Baqara" surasi, 217-oyat)[2]

Said Ahmadning "Qorako'z majnun" hikoyasi biz mustaqillikka erishgan yillarimizda vujudga kelgan hikoyalardan biriga mansub. Bu hikoyada mung'ayib qolgan Saodat aya bir necha o'n yillardan buyon harbiy xizmatga ketib, o'sha yerda turmush qurib, oilasini davom ettirgan Bo'rixonni kutib, uni har nomozlarida eslaydigan muslima ayol obrazi gavdalanadi. Bu hikoyani o'qishni boshlaganimizdanoq, "Qorako'z majnun" nima ekanini bilib olishimiz mumkin bo'ladi. Bu o'sha mehr va vafodorlik timsoli bilan ta'riflangan: "… kichkina, belida belbog'dek ikkita: biri qora, biri jigarrang chizig'i bor, tumshug'i bilan ikki ko'zi qop-qora, bir ko'zining tepasida to'mtoq qoshi bor" hayvon - it. Vafodor bu jonivor Saodat aya bilan har vaqt bir xil kayfiyatda - xafa bo'lsa xafa, quvnoq bo'lsa quvnoq, xayolga cho'ksa, u ham go'yo xayol surgandek bo'ladi. Bu vafodor do'stini shunchalik sevadi-ki, hatto o'z o'g'lini sog'inib qumsagan bo'lsa ham, uni do'stidan ko'ra begonaroq his etadi.

Saodat aya o'g'li haqidagi xabarni nevarasi Anvardan eshitadi va mulzamlik holatiga tushadi. Adib bu holatni shunday ta'riflaydi: "Birovga so'zini bermaydigan errayim kampirning shoxi sindi, ostona hatlamay uyda muqim o'tirib qoldi", - deydi.[3]

Kunlardan bir kun Saodat aya Qorako'z bilan qizining uyiga tomon yo'l olar ekan, adib itning yo'l bo'yi qilgan har bir harakati, qiliqlari, sakrashi, bir qulog'ini dikkaytirib, birini shalpaytirib erkalik qilishlarini, yo'lda uchragan mushukni tiraqaylatib quvishini - hamma-hammasini ustalik bilan tasvirlaydi. Saodat aya bu do'stini o'z oila a'zosidek ko'rib:

" - Abdumalik akangnikiga boramizmi yo Dilbar opangnikigami? Dilbar opang domda yashaganligi uchun itdan hazar qiladi. Seni uyiga kiritmaydi, endi

nima qilamiz? Mayli, opangnikiga birrovga borib kelamiz, ungacha sen hovlida bolalar bilan o'ynab turasan", - deya unga murojaat qiladi. Mehmondorchilikdan uyiga qaytib kelganda, kutilmagan bir xushxabar uni qarshi oladi. Ayaning shuncha vaqtlik duolari ijobat bo'lib, o'g'li - Bo'rixonning kelganligini eshitadi. Bu xabar Saodat ayaning yillab qalbida joy olgan g'uborlarning tarqalishi, ko'ksini, xuddi tog'dek o'rab olgan armonlarning ro'yobga chiqishi qamrab oladi. O'g'li bilan bo'lgan uchrashuvda it qandaydir bezovta bo'lib Bo'rixonga g'ashlik qilib, tinmay irillaydi. Ona sog'inchini bosish uchun o'g'lini ancha payt bag'riga bosib o'tiradi. Shuncha yillik dard-u alami yoyilganligidan, xursandchilikda bo'lib, o'g'lidan kelayotgan aroq va sham yoqilgan uyning ifori taralayotganini sezmaydi ham. Kunlar o'tib Bo'rixonning ota-bobolari e'tiqod qilgan islom dinidan kechib, o'zga dinni qabul qilganligi barchaga ayon bo'ladi. Onaxon bu noxush xabarni bilgandan keyin Bo'rixondan ko'ngli sovib, uni yo'qdek tasavvur qiladi. O'z dinidan boshqa dinga o'tish holati 1970-yilning kech kuzida sodir bo'ladi. Boshqa dinga o'tish sababi chet ellik qizni yoqtirib qolganida, qizning otasi boshqa dindagi odamga qizini bermasligini aytadi. Suygan yori esa ishq-muhabbatdan ko'zini parda bosgan Bo'rixonni xristian diniga o'tishga undaydi. Bo'rixon hech ikkilanmay rozi bo'ladi. O'sha paytda cherkov oqsoqoli muhabbatga tashna bu ikki yoshga toj kiydirib, nikoh o'qiydi. Yangi hayotdan keyin esa Bo'rixon turmush o'rtog'i, qaynonasi bilan har kuni cherkovga qatnab cho'qinadigan, cherkov qo'ng'iroqchisi bo'lgandan keyin nimaiki ish bo'lsa, yonib tamom bo'lgan shamlarni almashtiradigan bo'ldi. Chaqaloqligidan mehr berib, uni uch yoshga kirguncha sut bilan katta qilgan, yomon ko'zdan asrab, kiyimlariga tumor, ko'zmunchoqlar ilib, uni guldek avaylagan insonni kun kelib o'z dinidan boshqa dinga o'tib ketganini vafot etgan otasi hozir tirik bo'lganida uni nimtalab tashlagan

bo‘lardi. Bo‘rixonni tug‘ilgan yurtga bo‘lgan muhabbat tuyg‘usi tark qilgani, xristian dini sig‘inuvchisi bo‘lgani uchun O‘zbekiston mustaqillikka erishdimi yo‘qmi, farqi yo‘q edi. Saodat aya ham har bomdod nomozini o‘qiyotib, sajdaga bosh qo‘yganida joynomozga ko‘z yoshlarini to‘kardi, eriga atab Qur’on tilovat qilar, baxti chopmagan qizi - Qumriga atab, farishtadek qizining baxtga erishishini tilab, Allohga iltijo qilardi. G‘oyibdan paydo bo‘lgan o‘g‘lini yo‘qdek his etib, hatto uni tilga olmasdi.

O‘g‘lining ketar vaqti kelganida ham kuzatishga borishdan bosh tortib: “ - Men bormayman, Qumri boradi, anovi chamadon o‘lgurni ham olib ketinglar”, - deydi. Hamma ketgandan keyin Saodat aya o‘g‘lining olisdaligida sog‘inchini bosish uchun ba’zi-ba’zida kiyimlarini bag‘riga bosib, yig‘lagan edi. Hozir esa quvonish o‘rniga qalbini muz qoplagandek edi. Kiyimlarini bir joyga jamlab, hovli o‘rtasida uni yoqib yuboradi. Qizi Qumri ko‘ngli bir nimani sezganday bo‘lib ketayotgan mashinadan tushib qoladi. Onasining yoniga kelganda hovlidan tutun hidi kelayotganini, onasi kaftini iyagiga tirab, qimir etmay o‘tirganini ko‘radi.Qumri nima uchun bunday holat bo‘lganini sezadi. Ma’lum vaqt o‘tadi.

Onasiga:

“ - Oyi, nima ovqat qilib beray? Ertalab ham hech nima totmadingiz, bunaqada toliqib qolasiz-ku” , - deydi.

Onasi:

“ - Ishtaham yo‘q, bolam, ichim to‘la muz, tanam asta tarqalyapti”.

Qumri sarosimaga tushib: “Ko‘p kuyinmang endi, bo‘lar ish bo‘ldi, Ollohning irodasi, nima ham qila olardik”.

" - E qizim-a, farzand tug'magansan-da, bilmaysan!"

Onasi umri davomida qiziga umuman bu gaplarni aytmagan edi. Qumri onasini tushunib, bu gaplarni malol olmadi.

" - Axir akam tiriklar-ku, shukur qilmaysizmi?

- U endi yo'q!", - deydi.

Har bir xafagarchilik ortida xursandchilik bo'lgani kabi kunlar o'tib Imom-xatib Saodat ayaning "Hoji badal" bo'lgani to'g'risida bir hujjatni olib keladi. Saodat aya xursand bo'lib qo'lini duoga ocholmay: "Allohim, o'zingga shukur!", - deya oladi, xolos. Saodat aya ikki kun shu holatda yotib, ozgina o'ziga kelib, tilga kirdi. Aslida esa, bu holat uning umri tugayotganligidan darak berar edi. U hamma farzandlarini yig'ib, vasiyat qilishi kerakligini aytadi. Qator o'tirgan bolalari, nevaralarini ko'rib, mamnunlik bilan:

- Xudoga shukur, tobutim oldida boradigan hassakashlarim ko'p ekan, - deydi. Vasiyatida Abdumalik o'g'lini barcha farzandlariga ota bo'lishi, Qumrini zining o'rniga ona bo'lishini, Abdunabini shu hovlida to'yi bo'lishini aytib o'tadi. Eng qiziq holat esa azaga kelgan xotin-xalaj olida xunuk bo'lib yotmasligi uchun qoshiga o'sma qo'yishini eslatadi va shu holatda jilmaygancha vafot etadi.

Saodat ayaga "Hoji ona" deb janoza o'qiladi. Qabristonga Qorako'zni bormasin, yomon bo'ladi deya qo'shnisining hujrasiga bog'lab ketishadi.

Egasi ketib fayzi yo'qolgan hovlida Qumri va Qorako'z mung'ayib qoladi. Kunlardan bir kuni Qorako'z ham Saodat ayaning barcha tanbehlari quloq ostida yangrab tinmay vovullab, bir joydan ikkinchi joyga yugurib, akillar edi. Bunday

shovqinga chiday olmagan kimdir Qorako'zga qarata o'q uzadi. Qorako'zning bunday olamdan o'tishi ayanchli edi. Uning quloqlari ostiga Saodat ayaning:

" ...Qorako'z o'lmagur, Majnungina, yana qayoqqa ketyapsan? Ma'shuqalaring oldigami? Kelinni qachon kvramiz? Laylingni bir olib kel, ko'ray..",[4] - degan tanbehlari kelib ko'zini yumgancha jon beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, hikoyani o'qib, insonning eng vafodor do'sti nima ekanligi, o'zbekona urf-odatlar qadriga noloyiq bir farzandning qilmishlari ko'rsatilganini, itning vafosi o'g'ilning ona ko'nglini vayron qilishdan ustun ekanligini anglash, tushunish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 1.Mardonova Lobar Umaraliyevna. (2024). TARIXIY MANBALARDA AMIR TEMUR OBRAZINING BADIIY TALQINLARI. IMRAS, 7(6), 56–60.
2. 2.Zafariddin Temirov, and Xujanova Nasiba. "The Triumph of Light Over Darkness." *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, vol. 33, 20 Feb. 2025, pp. 34-37.
3. Dilshoda, A. (2025). MUHAMMAD YUSUF IJODINING ADABIYOTIMIZDA TUTGAN O 'RNI. Global Science Review, 1(1), 388-392.
4. Xurramovna, Q. G., & To'raqulovna, D. M. (2025, December). "FARHOD VA SHIRIN" DOSTONIDAGI ONOMOSTIK BIRLIKLARNING BADIIY-POETIK AHAMIYATI. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*. (Vol. 1, No. 5, pp. 58-61).
5. Saidmuradova, S., & Madina, T. L. (2024). ALISHER NAVOIY SHE'RIYATI POETIKASI. *PEDAGOGS*, *57*(1), 147-152.
6. Farida, X., To'xtayeva, D., Murtazayeva, M., & Abdurahmonova, D. (2025). SAB'AI SAYYOR" DOSTONINING BOBLARI BO'YICHA TAVSIFI. *Shokh Articles Library*, *1*(2).